

ZULFIYA – VAFO TIMSOLI

Alimova Dildora Mamatkulovna

*Jizzax viloyati Jizzax shaxar Ixtisoslashtirilgan
ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi
Tarbiyachi-pedagog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiya ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan vafo, sadoqat va muhabbat mavzulari tahlil qilinadi. Shoiraning she‘riyatida insoniy fazilatlar, ayniqsa, sadoqat va mehr-muhabbatning yuksak ifodasi o‘z aksini topgan. Maqolada uning ijodiy faoliyati va asarlaridan misollar keltirilib, Zulfiya obrazining adabiy va ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Zulfiya, vafo, sadoqat, muhabbat, she‘riyat, insoniy fazilatlar, adabiy meros.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan Zulfiya ijodi beqiyos samimiyat, insoniylik va vafodorlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Shoira o‘z asarlarida nafaqat ayollarga xos sadoqat va muhabbatni, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham ulug‘laydi.

Zulfiya Isroilova-qalbiz bahori, she‘riyatimiz nufuzi, o‘chmas xotiralar nahori. U benazir ayol, buyuk va mehribon ona, sadoqatli rafiqa. U sharq ayollarining teng huquqi uchun kurasha olgan mardonavor va jasur ayol. Taniqli o‘zbek shoirasi Zulfiya 1915- yilning 1-martida Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug‘ildi. Shunga qaramay, ota-onasi yuqori madaniyatli, oqil insonlar bo‘lishgan. „Onam ohista va xotiramda saqlanishicha, ma’yus bo‘lganlar. Lekin ularda qullik horg‘inligi bo‘lmagan. Ular qanchadan-qancha qo‘shiq va afsonalar bilganlar, ularni mohirona aytib, kuylab bera olganlar, biz-farzandlarini sehrli ertaklar bilan qiziqтира olganlar, - eslaydi Zulfiya, onasini xotirlar ekan. Mo‘jizalarga sabab bo‘luvchi, dunyoni fosh qiluvchi, insoniyatni ajoyibotlar sari yetaklovchi „so‘z“ga bo‘lgan mehrni oddiygina ayol - onam uyg‘otganlar...“. Tabiiyki, onamlar farzandlari o‘qimishli, madaniyatli insonlar bo‘lishini istaganlar. Ularning orzusi ro‘yobga chiqdi ham. Zulfiya o‘rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, respublika gazeta va oynomalari nashriyotida ish faoliyatini boshladi, she‘riyatga qiziqib qoldi va she‘rlar yoza boshladi. Uning ilk she‘rlari “Yangi yo‘l” oynomasi va “Qizil O‘zbekiston” hamda “Yosh leninchi” gazetalarida chop etila boshlagan. U 1932 yil 17 yoshni qarshi olganida, uning “Hayot sahifalari” nomli ilk she‘riy to‘plami omma yuzini ko‘rdi. Bular — yoshlar, do‘stlik, inson qalbining go‘zalligi haqidagi she‘rlar edi. So‘ngra, she‘rlari, dostonlari va hikoyalari e‘tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar

ko‘rinishida chop etila boshlangan, turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, respublika va respublikalar aro har xil tashkilotlar a‘zosi aylanadi. Urush yillarida uning ijodi o‘ta avj oladi, ichidagi alam va fig‘onlarini o‘z she‘rlarida yoritadi, vatanparvarning g‘ayratli ovozi jaranglaydi, vatani mustaqilligi uchun qo‘liga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta‘minlayotganlarga nisbatan lirik iliqqligi seziladi. „Uni Farhod derdilar“ she‘rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g‘alabaga ishonch ifodalangan. G‘animga qarshi kurashgan chorlov askar-o‘g‘il haqidagi ona qo‘shig‘i, xotini va onasini sog‘ingan jasur frontchi, paxlavon eri uchun qayg‘urayotgan ayolning qayg‘uli xavotiri, issiqni issiq, sovuqni sovuq demay tinmay ishlagan, yer ag‘dargan xalqning mehnatkashligi bilan bog‘lanadi. Shoira Vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo‘lsa ham: „Axir, baxt ona diyorida gina tirikdir“- deydi. Urush yillaridagi she‘rlari nihoyatda yuqori badiiy mahorat, yorqin she‘riy timsollar bilan qayd etilgan. Urushdan keyingi she‘rlari ham o‘zgacha falsafiy mazmunga boy bo‘lgan. Urushda jarohat olgan haqiqat tasviri keng ko‘lamda aks ettirilgan, xalqning boshiga tushgan ayanchli kunlar poyoni talqin qilingan.¹

Bundan tashqari, Zulfiya-shoira, jurnalist, tarjimon, jamoat arbobi. O‘zbekiston xalq shoirasi va Mehnat Qahramoni. Shoir Hamid Olimjonning rafiqasi. Yoshlar va o‘smirlar adabiyoti nashriyotida muharrir, O‘zbekiston davlat nashriyotida bo‘lim mudiri, „O‘zbekiston xotin-qizlari“ jurnalida bo‘lim mudiri, bosh muharrir bo‘lib ishlagan. Uning ilk she‘ri 1931 yilda „Ishchi“ gazetasida bosilgan. Dastlab 1932 yilda „Hayot varaqalari“ she‘rlar to‘plami nashr etilgan. Shundan keyin uning „Temiroy“, „She‘rlar“, „Qizlar qo‘shig‘i“ she‘riy kitoblari e‘lon qilingan. Zulfiy she‘riy ijodining porlashi „Uni Farhod der edilar“, „Hijron kunlarida“ va „Hulkar“ to‘plamlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to‘la she‘rlar Zulfiya ijodida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganidan darak beradi.

Shuningdek, Zulfiya ijodida vafo timsoli muhim o‘rin tutadi. Uning ko‘plab she‘rlarida sadoqatli yurak, muhabbatga sodiqlik va insoniy burch tushunchalari aks etgan. Ayniqsa, turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon vafotidan so‘ng yaratgan she‘rlari shoira qalbidagi chuqur sadoqatni yaqqol namoyon qiladi.

Masalan, Zulfiya she‘rlarida vafo tushunchasi quyidagicha aks etadi:

- Sevgi va sadoqat mavzusi – Shoira o‘z ijodida muhabbatga bo‘lgan ishonch va unga sodiqlikni ta‘kidlaydi. Uning she‘rlarida sevgiga bo‘lgan hurmat va vafodorlik aniq ifodalangan.

¹ Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. Toshkent: „Yozuvchi“, 2000.

•Ona va vatan sadoqati – Zulfiya asarlarida nafaqat shaxsiy munosabatlardagi, balki vatanga bo‘lgan sadoqat ham muhim o‘rin tutadi. U o‘z yurtiga, xalqiga bo‘lgan muhabbatini she‘riyatida kuylagan.

•Do‘stlik va insoniy munosabatlar – Uning ijodida insonlar orasidagi do‘stlik va mehr-muhabbat ham asosiy mavzulardan biridir.

Shuningdek, Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o‘rganish va nashr etish ishiga bag‘ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning „Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” dostoni asosida qo‘g‘irchoq teatri uchun „Semurg‘” pyesasi (S. Somova b-n hamkorlikda) hamda „Zaynab va Omon” operasi librettosini yozdi. A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, Mustay Karim, Amrita Pritam, Ye. Bagryana va b. ning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko‘plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiya xalqaro Javaharlal Neru, „Nilufar” mukofotlari hamda Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureate bo‘lgan.. Shuningdek, u Bolgariyaning „Kirill va Mefodiy” ordeniga sazovor bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya ijodi o‘zbek adabiyotida sadoqat, muhabbat va vafodorlik timsoli sifatida qadrlanadi. Uning she‘rlari bugungi kunda ham inson qalbini ezgulikka undaydi va sadoqat tushunchasini chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she‘riyat ijodkori, Toshkent, 1986.
2. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. Toshkent: „Yozuvchi“, 2000.
3. Qayumov L. Shoir Zulfiya. Toshkent, O‘zadabiynashr, 1965.
4. Zulfiya. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.